



## KINO MUTAXASSISLAR TASHRIFI

Kino san'ati badiiy vizualligi, yorqin tasviri, betakror xarakterlar orqali inson qalbini hissiy larzaga soladi. O'zbek milliy kinematografiyasini yanada rivojlantirish borasida ko'plab ishlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutiga Yevropa kino ittifoqidan mutaxassislar tashrif buyurishdi. Institutning Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor Go'zal Xoliqulova hamda "Ovoz rejissyorligi va operatorlik mahorati" kafedrasini mudiri Iqbol Meliqo'ziyev boshchiligida mehmonlar iste'dodli talaba-yoshlarga mahorat darslarini o'tishdi.



O'ZDSMI – O'ZBEKISTON DAVLAT SAN'AT VA MADANIYAT  
INSTITUTI/dsmi.uz

Latviyalik kinorejissyor va operator Daynes Klaav mamlakatimizda o'tkazilayotgan "Yevropa kino kunlari" doirasida iqtidorli talabalar uchun hujjatli filmlar rejissurasi, operatorlik mahorati, zamonaviy kinoprodyuserlik tendensiyalar, Yevropa kinosanoati borasida qiziqarli ma'lumotlarni keltirdilar.



O'ZDSMI – O'ZBEKISTON DAVLAT SAN'AT VA MADANIYAT  
INSTITUTI/dsmi.uz

O'zbekistonda Yevropa kino kunlari 24-25 oktabr kunlari Nukus shahrida o'tkazilishi rejalashtirilgan. Yevropa kino delegatsiyasi tashrif buyurib, mazkur festival doirasida "Homo Sapiens" hujjatli kinokartinasini namoyish etadi. Shu bilan birga, xalqaro doiradagi konferensiya, brifinglar, uchrashuvlar, davra suhbutlari tashkil etiladi.



0'ZDSMI – 0'ZBEKISTON DAVLAT SAN'AT VA MADANIYAT  
INSTITUTI/dsmi.uz



**O'ZDSMI – O'ZBEKISTON DAVLAT SAN'AT VA MADANIYAT  
INSTITUTI/dsmi.uz**

Kinorejissyor Daynes Klaar mazkur festivalga iliq fikr bildirdi, o'zbek filmlari jahon maydonlarini ko'proq zabt etishiga tilak bildirib, iste'dodli talabalarga omadlar tiladi.

**O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti  
matbuot xizmati**